

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



MUSIQA TARIXI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lism

Ta'lism sohasi: 110000 - Ta'lism

Ta'lism yo'nalishi: 60110600 – Musiqa ta'limi

Chirchiq – 2024

Fan/modul kodi MTar306	O'quv yili 2026/2027	Semestr 5-6	ECTS – Kreditlar 4-5
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
	Musiqa tarixi.	120	150
			270

2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - - talabalarni musiqa san'atining tarixiy rivojlanishi, uning madaniyat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni bilan tanishtirishdir; talabalarni musiqa o'qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga chet el musiqasi madaniyati tarixiy taraqqiyoti, asosiy yo'nalishlari, janr va shakllari haqida ma'lumot berish, jahon klassik musiqasiga xos bo'lgan badiiy ifoda vositalarini va turli xil janrdagi asarlarning mazmunini idrok etishga o'rgatish, g'arbiy Yevropa va rus kompozitorlarining ijodiyoti hamda badiiy jihatdan ahamiyatlari asarlari bilan tanishtirish, har bir kompozitorning kasbiy mahorat jihatlarini aks ettiruvchi xususiyatlarini yoritib berish;</p> <p>- talabalarni o'zbek musiqasi bosib o'tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o'rni, milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy-tarixiy bilimlar berish, musiqa san'atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog'liqligini tushuntirish, o'zbek musiqasini qadimiy davrlarda, temuriylar davrida qay darajada rivojlanganligini, ulug' siymolar va musiqashunoslar nomlarini va ularning musiqa ilmida yaratgan kashfiyotlari hamda uni rivojlantirishdagi hissalarini bilish orqali talabalarda milliy g'urur, qadr-qimmat, ehtirom tuyg'ularini shakllantirish.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. XVII-XVIII asr Yevropa musiqa madaniyati. G.Gendel ijodi.</p> <p>XVII asr opera janri shakllanishi va rivojlanishi. XVII asr cholg'u musiqasi. XVIII asr musiqa madaniyati tarixida G.Gendel musiqasining axamiyati. Kompozitor ijodida opera va oratoriya janrlari.</p> <p>2-mavzu. I.S.Bax ijodi. XVIII asr Yevropa mamlakatlari cholg'u musiqasi. XVIII asr musiqa madaniyati tarixida I.S.Bax musiqasining axamiyati. Kompozitorning ijodiy yo'li. Bax ijodida dinning ahamiyati. Veymar davri va kompozitorning melodik uslubining shakllanishi. Kyotten davri va kamerm-cholg'u musiqasi rivojlanishi. Leypsig davri - I.S.Bax ijodining cho'qqisi.</p>
----	---

Kompozitor ijodidagi obrazlar, g'oyalar va polifonik uslub. Klavir musiqasi.
3-mavzu. Klassitsizm. K.V.Glyuk opera islohoti. Klassitszm. Vena klassik maktabi. K.V.Glyuk opera islohoti tamoyillari.

4-mavzu. I.Gaydn ijodi. Y.Gaydn ijodini davrlashtirish: Ijodining birinchi davri (1751-1761); Ijodining ikkinchi davri (1761-1791); Ijodining uchinchi davri (1791-1801); Kompozitor ijodidagi asosiy janrlar. Gaydn musiqasining xalqchilligi. Gaydn ijodida sonata-simfonik siklning rivoji.

5-mavzu. V.Mosart ijodi. V.A.Mosart ijodini davrlashtirish kompozitor musiqasining uslubiy xususiyatlari. Mosartning opera estetikasi, uning Glyuk opera estetikasidan farqi. Opera janlarining o'zaro ta'siri. Simfonik ijodi, fortepiano ijodi. Rekviem.

6-mavzu. L.Betxoven ijodi. L.Betxoven ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati. Ijodiy davrlari: Bonn davri (1770-1792); birinchi Vena davri (1792-1802); Yetuk ijodiy davri (1802-1812); Ijodining so'ngi davri (1812-1827); Fortepiano ijodi. Simfonik ijodi.

7-mavzu. Romantizm. F.Shubert ijodi. R.Shuman ijodi. R.Shopen ijodi. Musiqiy romantizm san'ati. Shubert musiqasining g'oyaviy mazmuni. Kompozitorning hayoti va ijodiy yo'li. Ijodining tavsifi. Vokal lirikasi. Vokal sikllari.

R. Shuman ijodining asosiy mavzu va obrazlari. Fortepiano ijodi. Miniaturalar sikli. "Karnaval". Vokal lirikasi yangi jihatlari. Vokal sikllari.

F. Shopen ijodini davrlashtirish. Bolalik va o'smirlik yillari. Ijodidagi yetuklik davri. Parij (1830-1848), London, Manchester, Shotlandiyadagi faoliyati. Ijodiga tavsif. Fortepiano ijodi.

8-mavzu. F. List ijodi. E.Grig ijodi

F.List ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati. Kompozitorning ijodiy yo'li. Ijodini davrlashtirish. List fortepiano musiqasining ahamiyati. Fortepiano musiqasining simfonik talqini. Fortepiano uslubining janriy hilma-xilligi. Transkripsiyalari. Etyudlar. "Sargardonlik yillari" sikli. Si-minor sonatasi. Simfonik ijodi.

E. Grig ijodi estetikasi. Kompozitorning ijodiy yo'li. Fortepiano ijodi. G.Ibsen "Per Gyunt" dramasiga musiqa.

9-mavzu. J.Verdi ijodi. R. Wagner ijodi. J. Bize ijodi. J. Verdi ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati. Kompozitor ijodini davrlashtirish. Verdining opera g'oyalari, dramaturgiya tamoyillari. «Rigoletto», «Traviatta», «Aida» operalari.

Rixard Wagner ijodining jahon musiqa madaniyati tarixidagi ahamiyati. Kompozitor ijodini davrlashtirish. Opera ijodi estetikasi. "Tangeyzer", "Loengrin" operalari. «Nibelunglar uzugi» tetralogisiysi.

J.Bize ijodining asosiy obrazlar doirasi va mavzulari. J.Bizening estetik qarashlari. Opera «Karmen». Musiqiy dramaturgiya tamoyillari. A.Dodening "Arlezianka" dramasi uchun yozilgan musiqa.

10-mavzu. Impressionizm musiqada. K.Debyussi, M. Ravel ijodlari. Fransuz san'ati tarixida impressionizmning ahamiyati. Impressionizmning tasviriy san'at va musiqadagi ko'rinishi. M.Ravel va K.Debyussi ijodlar.

11-mavzu. XIX asrning birinchi yarmidagi rus musiqa madaniyati.

M.I.Glinka ijodi.

XIX asr birinchi yarmidagi rus musiqasining shakillanishi. Rus romantizm xususiyatlari. Teatr janrlarining rivojlanishi. XIX asr boshlaridagi rus operasi va uning xususiyatlari belgilari. Vokal musiqasi. Shahar romansi. Rus maishiy romanslar xususiyatlari. Romanslarning rus she'riyati bilan aloqasi. Rus musiqasida A.S.Pushkin ijodining ahamiyati.

M.I.Glinka rus klassik musiqasining asoschisi. Rus musiqasi asosiy janrlari shakllanishidagi Glinkaning tarixiy ahamiyati. Ijodining halqchilligi. Opera ijodi.

12-mavzu. A.S.Dargomiyjskiy ijodi. XIX asrning II yarmida rus musiqa madaniyati. Dargomiyjskiy M.I.Glinka an'alarining davomchisi. Ijodiy yo'li. Dargomiyjskiy ijodining tavsifi. Badiiy tamoyillari. Dargomiyjskiy asarlarining 5 ijtimoiy-tanqidiy g'oyasi. Opera ijodi.

XIX asr ikkinchi yarmidagi rus musiqa madaniyati – eng rivojlangan davr. Musiqiy-ijtimoiy xayoti. Rus musiqa jamoasi (RMJ), Peterburg (1859) va Moskva (1860) konservatoriylari, Bepul musiqiy muktab va ularning faoliyati.

«Qudratli to'da» kompozitorlarining ijodidagi obrazlar va syujetlar, vatanparvarlik mavzusi, vatan g'oyasi, xalq turmushi, tarixiy syujetlar, afsonalar, ertaklar. Opera san'atining rivojlanishi.

13-mavzu. M. P. Musorgskiy ijodi. A.P.Borodin ijodi.

M.P.Musorgskiy – tanqidiy realizm yo'nalishi namoyandasি. Musorgskiyning ijodiy estetikasi, novatorliligi. Uning xayoti va ijodiy faoliyati. Opera ijodi.

A.P.Borodin – kompozitor, kimyo sohasi olimi, dirijyor, ijtimoiy arbob, musiqiy tanqidchi. Xayoti va ijodiy yo'li. Kompozitor ijodi tavsifi. «Knyaz Igor» operasi. Simfonik ijodi. Romanslari.

14-mavzu. N.A.Rimskiy-Korsakov ijodi. N.A.Rimskiy-Korsakov kompozitor, pedagog, dirijyor, jamoat arbobi. Rimskiy-Korsakovning xayoti va ijodiy yo'li. Ijodiy tafsifnomasi. Opera ijodi. Opera syujetlari, opera janrlarining rang-barangligi. «Pskovlik ayol» - xalq tarixiy opera.

15-mavzu P.I.Chaykovskiy ijodi. Chaykovskiyning jahon musiqa madaniyatida o'ziga xos o'rni. «Go'zallik-bu xayotdir» kompozitor shiori.

Chaykovskiyning badiiy 6 printsiplari. Xayoti va ijodiy yo'li. Asarlarda rus xalqi turmushi, tabiatning aks ettirilishi. Opera ijodi. «Pikovaya dama» operasi.

16-mavzu. A.N. Skryabin ijodi. S.V.Raxmaninov ijodi.

A.N.Skryabin – kompozitor, pianinochi. Musiqiy tilining novatorliligi. Ijodining tadrijiy rivojlanishi. Ijodiy tasifnomasi. Fortepiano ijodi. Skryabinning ijodiy falsafasi. Simfonik ijodi. Skryabin ijodining axamiyati.

S.V.Raxmaninov – yirik kompozitor, buyuk pianinochi va dirijyor. Uning xayoti va ijodiy yo'li. Faoliyatining ko'p qirraligi. Uning asarlari barcha pianino ijrochilar repertuarida. Opera, xo'rlar, simfonik orkestr, kamer cholg'u asboblar va fortepiano uchun asarlari - jahon klassik musiqa merosidir. Opera ijodi. «Aleko» operasi. Simfonik ijodi.

17-mavzu. O'rta Osiyoning qadimiy musiqa madaniyati. Ilk o'rta asrlar san'ati. Somoniylar davrida musiqiy xayot (IX-X asrlar). O'zbek xalqining shakllanishi davrida musiqiy madaniyati (XI-XV asrlar). XVI-XIX asrlarda o'zbek xalq musiqa madaniyati. XIX asr ohiri – XX asr boshlarida o'zbek musiqa madaniyati.

O'rta Osiyo xududida o'tkazilgan arxeologik qazilma ishlari, noyob topilmalar xaqida ma'lumot (Afrasiyob, Ayrithom, Tuproq qal'a, Pajikentning arxeologik yodgorliklari) qadimgi So'g'diyona, Baqtriya, Parfiya va Xorazmnинг cholg'uchiligi, yakka va ansambl ijrochiligi.

O'rta asrning boshlarida katta sotsial va siyosiy harakatlarning sodir bo'lishi, badiiy madaniy yuksalish, o'rta osiyo musiqa madaniyatining boshqa sharq mamlakatlari madaniyati bilan o'zaro aloqasi, Borbadning o'rta asr musiqa ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. Arablar hukmronligi davri. Ansambl ijrochiliginig taraqqiy etishi. Bu davrda musiqiy ilmining rivojlanishi, ajoyib olimlar, shoirlar, musiqachilar, (Abu Nasr Farobi, Fbu Rayxon Beruniy, Ibn Sino) ning yashab ijod qilishi, saroy musiqachilar ijodida qasida janri. Cholg'u asboblari cholg'u ijrochiliginig rivojlanish.

XI-XV asrlarda Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Faxriddin Arroziyning musiqiy risolalarining yaratilishi. Amur Temur davrida madaniyat va san'atning yuksalishi. Torli cholg'u asboblarida ijrochilikning keng tarqalishi. XVI-XIX asrlar davrida katta feodal davlatni xonliklarga bo'linishining musiqaga ta'siri. Uzbek xalkining musika madaniyati. Musikiy folklor. 7 XIX asr ohiri – XX asr boshlarida davrda O'rta Osiyoga rus madaniyatining kirib kelishi. Xavaskor to'garaklarining tashkil etilishi, birinchi musiqali teatrlar. Ushbu yillarda o'zbek milliy musiqa merosini yozib olinishi va qayta ishlanishi. Samarqandda maxsus ilmiy - tekshirish institutini ochilishi. O'zbek musiqiy asboblarini yevropa usulida o'zlashtirilishi. Professional ijodiy guruhlar bilan bir qatorda xavaskorlik xalq ijodiy guruhlarining

rivojdlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar va birinchi musiqali dramala

18-mavzu. O‘rta Osiyo musiqiy-nazariy merosi. Maqom turkumlari.

O‘zbek kompozitorlari ijodida vokal va cholg‘u musiqa janrlari.

O‘rta Osiyoda musiqiy-nazariy tafakkurning rivojlanishi. Al Farobi, Ibn Sino, Jomiy va boshqa O‘rta Osiyo ollomalarining ilmiy-musiqiy ijodlari. Maqomlarning umumiy asoslari. Shashmaqom, uning cholg‘u bo‘limi, ashula bo‘limi. Xorazm maqomlari, uning Aytim va chertim yo‘llari. Shashmaqomning Xorazm maqomidan farqi. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari.

19-mavzu. O‘zbek kompozitorlari ijodida vokal va cholg‘u musiqa janrlari. O‘zbek kompozitorlari ijodida sahnnaviy musiqa janrlari - musiqali drama, opera, balet.

Rus kompozitorlar ijodida o‘zbek xalq qo‘shiqlarning qayta ishlanishi. M.Burxonov va M.Ashrafiy – birinchi o‘zbek kompozitorlar ijodida qo‘shiq va romans janrlari va ularning keyingi rivojlanishi. Birinchi o‘zbek oratoriya, kantata, xor uchun syuita janrlari. Simfonik orkestri uchun asarlar – syuita, simfoniya, uvertyura. Kamer cholg‘u musiqasi janrlari – fortepiano uchun pesalar, konsert, sonata, prelyudiya va fuga, cholg‘u ansamblar. O‘zbek xalq cholg‘ular orkestri musiqasi.

O‘zbek musiqiy teatr shakllanishi. Birinchi musiqali dramaning xossalari. O‘zbek kompozitorlari tomonidan mustaqil ravishda yozilgan musiqali dramalar. T.Jalilov, M.Leviev, Ik.Akbarov, D.Zokirov, S.Jalil, Yu.Rajabiylarning musiqali dramalari. O‘zbek opera janrining shakllanishi. XX asr II- yarmi davridagi opera janrining rivojlanishi – M.Ashrafiyning «Dilorom», «Shoir qalbi», S.Yudakovning «Maysaraning ishi», T.Jalilov va B.Brovsmarning «Tohir va Zuxra», U.Musaevning «Mangulik», Ik.Akbarovning «Sug‘d elining qoploni», S.Varelasning «Alloudinning sehrli chirog‘i». Ilk o‘zbek baletlari. XX asr II- yarmi davridagi balet janrining rivojlanishi – G.Mushelning «Raqqosa», Ik.Akbarovning «Layli va Majnun», 8 M.Levievning «Suxayl va Mehri», M.Ashrafiyning «Sevgi tumor» va «Sevgi va qilich», G.Mushel «Samarkand afsonasi», U.Musaevning «Xind poemasi»

20-mavzu. O‘zbek kino musiqasi. O‘zbek estrada musiqasi. O‘zbek kino musiqasi shakllanishi. «Nasriddin Buxoroda», «Toxir va Zuxra», «Ibn Sino», «Maftuningman», «mahallada duv-duv gap», «Sen yetim emassan», «Qaydasan, Zulfiya», «Toshkent – non shahri» va h.k. B.Zakirov va E.Salixov – o‘zbek estrada musiqasi asoschilari faoliyati. O‘zbek estrada ansamblari va xonandalar ijodida mahalliy folklor merosi va an‘analarining estrada turli stillari bilan uyg‘unlashuvidagi yutuqlari.

III. Seminar mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. G. Gendel oratoriyalari.
2. I.S. Bax organ va klavir musiqasi. Messa h-moll.
3. K.V. Glyuk “Orfey” operasi.
4. Y. Gaydn simfonik ijodi. Oratoriyalari
5. V.A. Mozart opera ijodi va simfoniyalari
6. L. Betxoven simfonik va fortepiano ijodi
7. F. Shubertning qo‘shiq va balladalari. Vokal sikllari.
8. Dj. Rossini opera ijodi.
9. K.M. Veber opera ijodi.
- 10.G. Berlioz opera va simfonik ijodi.
- 11.R. Shuman fortepiano va vokal ijodi.
- 12.R.Shubert ijodi.
- 13.F. Shopen fortepiano ijodi
- 14.F. List simfonik va fortepiano ijodi.
- 15.11.D. Verdi opera ijodi.
- 16.R. Wagner opera ijodi.
- 17.J. Bize opera ijodi.
- 18.E. Grig fortepiano ijodi.
- 19.K. Debussy – Impressionist-kompozitorlarning fortepiano va simfonik ijodlari
- 20.M. Ravel – Impressionist-kompozitorlarning fortepiano va simfonik ijodlari.
- 21.XIX asrning rus musiqa madaniyati. M.I. Glinka opera va simfonik ijodi.
- 22.A.S. Dargomijskiy opera ijodi. Romanslari.
- 23.“Qudratli to‘da” to‘garagi faoliyatining ahamiyati
- 24.M.P. Musorgskiy opera ijodi. “Ko‘rgazmadagi rasmlar”. Romanslari.
- 25.A.P. Borodin opera ijodi. “Bohodirlar” simfoniysi
- 26.N.A. Rimskiy-Korsakov opera va va simfonik ijodi.
- 27.P.I. Chaykovskiy fortepiano va simfonik ijodi.
- 28.P.I. Chaykovskiy opera va baletlari.
- 29.A.N. Skryabin simfonik ijodi.
- 30.S. V. Raxmaninov opera ijodi. Fortepiano musiqasi
- 31.O‘rta Osiyoning qadimiy musiqa madaniyati. Ilk o‘rta asrlar san’ati.
- 32.Somoniylar davrida musiqiy xayot (IX-X asrlar)
- 33.O‘zbek xalqining shakllanishi davrida musiqiy madaniyati (XI-XV asrlar).
34. XVI-XIX asrlarda o‘zbek xalq musiqa madaniyati.
- 35.XIX asr ohiri – XX asr boshlarida o‘zbek musiqa madaniyati.
- 36.O‘rta Osiyo musiqiy-nazariy merosi.
- 37.Maqom turkumlari.
- 38.O‘zbek kompozitorlari ijodida vokal musiqa janrlari, cholg‘u musiqa janrlari.
39. O‘zbek kompozitorlari ijodida sahnnaviy musiqa janrlari - musiqali drama, opera, balet
- 40.O‘zbek kino musiqasi. O‘zbek estrada musiqasi.

Seminar mashg‘ulotlari multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada

bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tlishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlari.

- Mustaqil ta'lif uchun tavsija etiladigan mavzular:
1. I.S. Bax ijodida Passion va koncherto grosso janrlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 2. K.V. Glyuk. "Orfey" operasi. Operasidan parchalar ijro etish.
 3. Y. Gaydn "Yil fasllari" va "Dunyo yaratilishi". Asarlaridan parchalar ijro etish
 4. V. Mozart fortepiano asrlari va konsertlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 5. L. Beethoven uvertyuralari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 6. F. Shubert, R. Shuman asarlaridan parchalar ijro etish
 7. F. Shopen asarlaridan parchalar ijro etish
 8. K.M. Veber, Dj. Rossini, G. Berlioz asarlaridan parchalar ijro etish
 9. F. List konsert sayoxatlari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 10. R. Wagner va J. Verdi Asarlaridan parchalar ijro etish
 11. J. Bize asarlaridan parchalar ijro etish
 12. Ye. Grig Asarlaridan parchalar ijro etish
 13. K. Debussy, M. Ravel Asarlaridan parchalar ijro etish
 14. A. Alyabev, A. Varlamov, A. Gurilyov romanslari
 15. M.I. Glinka romanslari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 16. A.S. Dargomijskiy asarlaridan parchalar ijro etish
 17. M.P. Musorgskiy simfonik ijodi. Asarlaridan parchalar ijro etish
 18. A.P. Borodin asarlaridan parchalar ijro etish
 19. N.A. Rimskiy-Korsakov satirik operalari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 20. P.I. Chaykovskiy fortepiano. Asarlaridan parchalar ijro etish
 21. S.V. Raxmaninov romanslari. Asarlaridan parchalar ijro etish
 22. O'zbek xofizlari
 23. O'zbek bastakorlari
 24. O'zbekiston orkestrlari
 25. V. Uspenskiy, R. Glier. A. Kozlovskiy, G. Mushelev ijodiy faoliyatlarini. Asarlaridan parchalar ijro etish
 26. T. Sodikov, D. Zokirov, S. Yudakov ijodiy faoliyatlarini Asarlaridan parchalar ijro etish
 27. M. Ashrafi, M. Leviev, M. Burxonov, I. Akbarov ijodiy faoliyatlarini. Asarlaridan parchalar ijro etish
 28. M. Bafoev, M. Tojiev, U. Musaev ijodiy faoliyatlarini. Asarlaridan parchalar ijro etish
 29. A. Mansurov, N. Narxo 'jaev, D. Omonulaeva ijodiy faoliyatlarini. Asarlaridan parchalar ijro etish
 30. E. Salixov va o'zbek estrada yulduzlarini ijodiy faoliyatlarini. Asarlaridan parchalar ijro etish
 31. O'zbekiston musiqiy festivallari Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan prezentatsiya, videolar tayyorlash va uni taqdimot

qilish tavsija etiladi.

3.

V. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunadilar, hamda musiqiy-texnik ko'nikmalarga ega bo'ladilar; garmoniya, musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlarini, musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funksiyasi bilan tanishadilar va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qila oladilar; musiqiy fikrash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani his eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, lad, ritm, sur'at va uslub tuyg'usini tarbiyalashni amaliyotda **qo'llay oladi**.
- kelajakdagi kasbiy faoliyatda musiqa elementlari nazariyasi, sal'fedjio, kuyni garmoniyalash, musiqa asarlarni tahlil qilish fanlar sohalari bo'yicha bilim, **malaka va ko'nikmalarga ega bo'лади**; ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarishda ishtirot etadilar.

4.

VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruza, amaliy topshiriqlar bajarish;
- interfaol keys-stadilar;
- kichik guruhlarda ishslash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual musiqiy loyihalalar;
- jamoa bo'lib ishslash va hioya qilish uchun amaliy loyihalarni amalga oshirish.

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy-uslubiy, amaliy-musiqiy tushuncha va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirish, musiqiy asarni tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan asar va tushunchalar janri, muiqiy yo'li haqidagi mustaqil mushohada yuritish, joriy va oralig' nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.

6.

VIII. Asosiy adabiyotlar:

1. Trigulova A. X. Musiqa tarixi (Chet el musiqa tarixi). Darslik. Toshkent, 2021.
2. Tursunova R. Jahon musiqa tarixi. "O'zbekiston davlat konservatoriysi", Toshkent, 2024.
3. Trigulova A.X. Xorijiy musiqa adabiyoti. Toshkent, «Ilm ziyo», 2009.
4. Urmanova L.A. Rus musiqasi tarixi. Toshkent, «Musiqa», 2010.
5. Madrimov B. "O'zbek musiqa tarixi", Toshkent, 2018

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ibrohimov O.A., Xudoyev G.M. Musiqa tarixi. T., "Barkamol fayz media", 2018.
2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O'zbek musiqasi tarixi. T., "Fan va texnologiya", 2018.
3. Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий кўшиқчиллик маданияти тарихи. Тошкент, «Ўқитувчи», 1996.
4. Матёкубов О. Мақомот. Тошкент, "Мусиқа", 2004.
5. Жабборов А.Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари. Тошкент,

«Ўзбекистон бастакорлар уюшмаси», 2015.

6. Друскин М. История музыки зарубежных стран. М. Музыка, 1963.

Axborot manbalari:

www.lib.csipi.uz

www.pedagog.uz

www.edu.uz

www.ziyonet.uz

7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29 ” 08 dagi 1 qarori bilan tasdiqlangan

Fan/modul uchun ma'sul:

M.S. Muxitdinova- ChDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
O.G.Yunusov - ChDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi mudiri v.b.

Taqrizchilar:

A.Q.Lutfullayev-Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ijro mahotari va madaniyati” kafedrasi mudiri, professor.
X.E.Sultanov – ChDPU San’atshunoslik fakulteti dekani, PhD, v.v.b. professor.